



**“O‘ZBEKISTON ILMIY-SINOV VA SIFAT NAZORATI MARKAZI”
DAVLAT MUASSASASI**

BUYRUG‘I

**“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” (UzTest) DM Ilmiy
kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish milliy tizimini rivojlantirishni samarali tashkil etilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda “Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4059-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-4419-sonli qarorlari, shuningdek O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorining 2024-yil 6-sentyabrdagi 07/240-son topshirig‘i va agentlik Hay‘atining 2024-yil 27-dekabrda bayoni topshirig‘iga asosan

Buyuraman:

1. “UzTest” DM huzurida Ilmiy kengash tashkil etilsin va Ilmiy kengashning tegishli hujjatlari (ushbu buyruq, nizom, kengash a‘zolari ro‘yxati va boshqalar) agentlik Hay‘atiga taqdim etilsin (G‘.Gaziyev, D.Kuvatov).
2. “UzTest” DM Ilmiy kengashi a‘zolari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. “UzTest” DM Ilmiy kengashi nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i (G.Buzrukxanova)ga ushbu buyruq bilan ikki kunlik muddatda Ilmiy kengash a‘zolarini tanishtirsin.
4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktorning ilmiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (G‘.Gaziyev) zimmasiga yuklatilsin.

Direktor v.b.

D.Kattaxodjayev

Toshkent sh.
2025-y. "03" 02
4
-son